O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

UNIFITSIRLANGAN METALL TAYANCHLAR OSTI FUNDAMENTLARI UCHUN TEMIR BETON BUYUMLAR

Texnik shartlar

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

So‘z boshi

1. STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2. O‘zbekiston standartlar institutining 08.09.2025 yil 106/MSt-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI**.

3. O‘z DSt 3329:2018 **O‘RNIGA AMALGA KIRITILDI**

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Mundarija

1	Qo‘llanish doirasi	1
2	Standartlarga havolalar	1
3	Texnik talablar	4
4	Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari	7
5	Qabul qilish qoidalari	8
6	Nazorat usullari	10
7	Transportda tashish va saqlash	11
8	Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar	11
9	Ishlab chiqaruvchining kafolatlari	11
	A ilova (ma’lumot uchun) Mahsulotlarning asosiy xususiyatlari	12
Bibliografiya		15
Bibliografik ma’lumotlar		16

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

UNIFITSIRLANGAN METALL TAYANCHLAR OSTI FUNDAMENTLARI UCHUN TEMIR BETON BUYUMLAR

Texnik shartlar

ИЗДЕЛИЯ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫЕ ДЛЯ ФУНДАМЕНТОВ ПОД УНИФИЦИРОВАННЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ОПОРЫ

Технические условия

Reinforced concrete products for foundations under unified metal supports

Spesifications

Amalga kiritish sanasi 08.10. 2025 yil.

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu milliy standart unifitsirlangan metall tayanchlar osti fundamentlari uchun temir beton buyumlarga (keyinchalik matn bo‘yicha - buyum), kuchlanishi 35–500 kV bo‘lgan elektr uzatish havo liniyalarini qurish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, texnik talablar, qabul qilish qoidalari, nazorat usullari, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish, transportda tashish va saqlash talablarini o‘rnatadi.

Buyumlar chiziqcha bilan ajratilgan harf-raqamli indekslardan tashkil topgan markalar bilan belgilanadi. Harfli indekslar buyumlarning turlarini va qo‘llanishini, raqamli indekslar – o‘lcham turlarini belgilaydi.

Buyumlarni buyurtma berish va yoki boshqa hujjatlarda yozilishiga misollar:

F3-AM (Ф3-AM) fundamenti, O‘zMSt __:20_, bu yerda:

- F(Ф) - fundament;
- 3- fundamentning geometrik o‘lchamlari;
- A- anker-burchakli tayanchlar uchun;
- M - modernizatsiya qilingan

R1-A (P1-A) rigel, O‘zMSt __:20_, bu yerda:

- R(P) – rigel;
- 1- rigelning geometrik o‘lchamlari;
- A - anker-burchakli tayanchlar uchun;

PA-2 (ПА-2) plitasi, O‘zMSt __:202_, bu yerda:

- P(П) - plita;
- A - anker-burchakli tayanchlar uchun;
- 2 - plitaning geometrik o‘lchamlari.

UUU-1A (УСО-1A) ustuni, O‘zMSt__:202_, bu yerda:

- U(У) - unifitsirlangan;
- U(C) - ustun;
- U(O) – uskuna osti;
- 1 – o‘lcham turi;
- A- modifikatsiya;
- O‘zMSt __:202_- mazkur standart belgilanishi.

2 Standartlarga havolalar

Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi:

ГОСТ 12.0.004-2015	Система стандартов безопасности труда. Организация обучения работающих безопасности труда. Общие положения;
ГОСТ 12.1.005-88	Система стандартов безопасности труда. Общие санитарно - гигиенические требования к воздуху рабочей зоны;

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ГОСТ 12.1.007-76	Система стандартов безопасности труда. Вредные вещества. Классификация и общие требования безопасности;
ГОСТ 12.1.019-2017	Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Общие требования и номенклатура видов защиты;
ГОСТ 12.1.030-81	Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Защитное заземление, зануление;
ГОСТ 12.2.003-91	Система стандартов безопасности труда. Оборудование производственное. Общие требования безопасности;
ГОСТ 12.3.009-76	Система стандартов безопасности труда. Работы погрузочно-разгрузочные. Общие требования Безопасности;
ГОСТ Р 12.3.047-2012	Система стандартов безопасности труда. Пожарная безопасность технологических процессов. Общие требования. Методы контроля.
ГОСТ 12.4.021-75	Система стандартов безопасности труда. Системы вентиляционные. Общие требования;
ГОСТ 12.4.103-83	Система стандартов безопасности труда. Одежда специальная защитная, средства индивидуальной защиты ног и рук. Классификация;
ГОСТ 17.2.3.02-2014	Правила установления допустимых выбросов загрязняющих веществ промышленными предприятиями;
ГОСТ 17.4.3.05-86	Охрана природы. Почвы. Требования к сточным водам и их осадкам для орошения и удобрения;
ГОСТ 310.3-76	Цементы. Методы определения нормальной густоты, сроков схватывания и равномерности изменения объема;
ГОСТ 310.4-81	Цементы методы определения предела прочности при изгибе и сжатии;
ГОСТ 380-2005	Сталь углеродистая обыкновенного качества. Марки;
ГОСТ 535-2005	Прокат сортовой и фасонный из стали углеродистой обыкновенного качества. Общие технические условия;
ГОСТ 6727-80	Проволока из низкоуглеродистой стали холоднотянутая для армирования железобетонных конструкций. Технические условия;
ГОСТ 8267-93	Щебень и гравий из плотных горных пород для строительных работ. Технические условия;
ГОСТ 8269.0-97	Щебень и гравий из плотных горных пород и отходов промышленного производства для строительных работ. Методы физико-механических испытаний;
ГОСТ 8735-88	Песок для строительных работ. Методы испытаний;
ГОСТ 8736-2014	Песок для строительных работ. Технические условия;
ГОСТ 10060-2012	Бетоны. Методы определения морозостойкости;
ГОСТ 31108-2020	Цементы общестроительные. Технические условия;
ГОСТ 10180-2012	Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам;
ГОСТ 10922-2012	Арматурные и закладные изделия их сварные, вязальные и механические соединения для железобетонных конструкций. Общие технические условия;
ГОСТ 12004-81	Сталь арматурная. Методы испытания на растяжение;
ГОСТ 12730.0-2020	Бетоны. Общие требования к методам определения плотности, влажности, водопоглощения, пористости и водонепроницаемости;
ГОСТ 12730.1-2020	Бетоны. Метод определения плотности;
ГОСТ 12730.5-2018	Бетоны. Методы определения водонепроницаемости;

STANDARTLARNI SOTISH UCHUN X2XY BOSHQARUV TIZIMIDAN FOYDALANILGAN

ГОСТ 13015-2012	Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения;
ГОСТ 14192-96	Маркировка грузов;
ГОСТ 17624-2021	Бетоны. Ультразвуковой метод определения прочности;
ГОСТ 17625-83	Конструкции и изделия железобетонные. Радиационный метод определения толщины защитного слоя бетона, размеров и расположения арматуры;
ГОСТ 18105-2018	Бетоны. Правила контроля и оценки прочности;
ГОСТ 22266-2013	Цементы сульфатостойкие. Технические условия;
ГОСТ 22690-2015	Бетоны. Определение прочности механическими методами неразрушающего контроля;
ГОСТ 22904-2023	Конструкции железобетонные. Магнитный метод определения толщины защитного слоя бетона и расположения арматуры;
ГОСТ 23279-2012	Сетки арматурные сварные для железобетонных конструкций и изделий. Общие технические условия;
ГОСТ 23732-2011	Вода для бетонов и строительных растворов. Технические условия;
ГОСТ 24211-2008	Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия;
ГОСТ 24297-2013	Верификация закупленной продукции. Организация проведения и методы контроля;
ГОСТ 26433.0-85	Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Общие положения;
ГОСТ 26433.1-89	Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Элементы заводского изготовления;
ГОСТ 26633-2015	Бетоны тяжёлые и мелкозернистые. Технические условия;
ГОСТ 30108-94	Материалы и изделия строительные. Определение удельной эффективной активности естественных радионуклидов
ГОСТ 30244-94	Материалы строительные. Методы испытания на горючесть;
ГОСТ 31424-2010	Материалы строительные нерудные из отсевов дробления плотных горных пород при производстве щебня. Технические условия;
ГОСТ 34028-2016	Прокат арматурный для железобетонных конструкций. Технические условия;
O‘zDSt 12.0.001:2005	Mehnat xavfsizligi, mehnatni ilmiy tashkil qilish sanoat sanitariya va gigiyenasi, standartlari tizimi;
O‘z DSt 838:2023	Temir-beton mahsulotlar yasash uchun po‘lat qoliplar. Texnikaviy shartlar;
O‘z DSt ISO 1920-7:2019	Betonni zararsiz sinov sinovidan o‘tkazish – 7-qism. Qattiqlashtirilgan beton ustunidan qattiq bo‘lmagan sinovlar;
O‘z DSt 3025:2015	Tekis va davriy profildagi armaturali prokat texnikaviy shartlar.
O‘zMSt EN 12390-2:2024	Qotgan betonni sinash. 2-qism: Mustahkamlikka sinash uchun namunalarni tayyorlash va qotirish;
O‘zMSt EN 12390-3:2024	Qotgan beton sinovi 3-qism: Sinov uchun namunalarining siqilishga mustahkamligi

Izoh - Ushbu milliy standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan

STANDARTLASHTIRISH INSTITUTI O‘ZBEKISTON STANDARTLARI AXBOROT TIZIMI

(o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agarda havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi.

3 Texnik talablar

3.1 Unifitsirlangan metall tayanchlar osti fundamentlari uchun temirbeton buyumlar mazkur standart talablariga, shuningdek,belgilangan tartibda tasdiqlangan ishchi va texnologik hujjatlar asosida tayyorlangan bo‘lishi kerak.

3.1.1 Buyumlarga tegishli ishchi hujjatlar ro‘yxati ushbu standartning A ilovasida keltirilgan.

3.2 Asosiy parametrlar va tavsiflar (xususiyatlar)

3.2.1 Buyumlarning shakli va o‘lchamlari loyiha hujjatlarida o‘rnatilgan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

3.2.2 A-ilovada ko‘rsatilmagan buyumlarning boshqa markalari va o‘lchamlarini, iste’molchi bilan kelishilgan holda, belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida tayyorlashga ruxsat etiladi.

3.2.3 Buyumlar O‘z DSt 838 talablariga muvofiq po‘lat qoliplarda tayyorlanishi kerak.

3.3 Buyumlarning geometrik parametrlarining aniqligiga qo‘yiladigan talablar

3.3.1 Buyumlarning geometrik o‘lchamlaridagi haqiqiy og‘ishlar 1-jadvalda keltirilgan me’yoriy chegaralardan oshmasligi kerak.

1 - jadval. Buyumlarning geometrik o‘lchamlarining haqiqiy og‘ish chegaralari ko‘rsatkichlari.

millimetrlarda

Og‘ish turi	Buyumlarning geometrik parametri	Og‘ish chegarasi
Chiziqli o‘lchamdan og‘ish	Eni va Uzunligi: 600 dan yuqori 4000 gacha 4000 dan yuqori 8000 gacha Balandligi: 280 dan yuqori 400 gacha 2500 dan 4000 gacha Eni 2500 gacha Chiqib turgan qismlarning balandligi: 250 dan 400 gacha Qalinligi Anker boltlarining uzunligi bo‘yicha: 120 dan 250 gacha 250 dan 500 gacha Teshiklar diametri bo‘yicha	±20 ±33 ± 10 ±24 ± 16 +5 ± 10 ± 12 ±20 ±0,6
To‘g‘ri chiziqlikdan og‘ishi	Barcha uzunligi bo‘yicha 2200 dan 5000 gacha	± 40
Plitalar uchun tekislikdan og‘ish	Yuzasining uzunligi quyidagicha bo‘lgan plitaning uch burchak nuqtalaridan o‘tgan shartli tekislikdan o‘lchanganda: 8000 gacha	30
Yuklanish plitasining diagonallar uzunligining tengligidan og‘ishi	Uzunligi diagonallar uzunligidan farqi: 6160 gacha	±24

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Perpendikulyarlikdan og‘ishi	Konstruksiya yonma-yon yuzalarining perpendikulyarligi: 2500 dan yuqori 4000 gacha	 ±24

3.4 Buyumlarning tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan talablar

3.4.1 Buyumlarning beton yuzalari ГОСТ 13015 bo‘yicha А7 toifasiga muvofiq bo‘lishi lozim.

3.4.2 Beton buyumlarda yoriqlarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi, boshqa yuzaki texnologik yoriqlar bundan mustasno, ularning kengligi 0,1 mm dan oshmasligi kerak.

3.4.3 Buyumlarning old yuzasida yog‘li va zangli dog‘lar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.4.4 Armatura ochilib qolishi taqiqlanadi, faqat ishchi chizmalarda ko‘rsatilgan armatura chiqish joylari bundan mustasno.

3.4.5 Po‘latdan yasalgan o‘rnatiladigan qismlarning ochiq yuzalari, armatura chiqish joylari va o‘rnatish ilgaklari beton qoldiqlaridan to‘liq tozalangan bo‘lishi kerak.

3.4.6 O‘rnatiladigan qismlar [1] talablariga muvofiq korroziyaga qarshi qoplamaga ega bo‘lishi kerak.

3.5 Betonga qo‘yiladigan talablar

3.5.1 Buyumlar ГОСТ 26633 ga muvofiq o‘rtacha zichligi 2200-2500 kg/m^3 bo‘lgan og‘ir betondan ishlab chiqarilishi kerak. Betonning siqilishga mustahkamlik sinfi ishchi chizmalarga muvofiq har bir buyum markasi uchun mos ravishda B15, B20, B22.5, B25 va B30 bo‘lishi kerak. Buyumlarning aniq markalari uchun beton sinflari mazkur standartning A ilovasida keltirilgan.

3.5.2 Betonning sovuqqa chidamliligi bo‘yicha markasi quyidagicha bo‘lishi kerak:

$F_1$150 - siqilishga mustahkamligi bo‘yicha B25 va B30 sinfdagi betonlar uchun;

$F_1$100 - siqilishga mustahkamligi bo‘yicha B20 va B22,5 sinfidagi betonlar uchun;

$F_1$50 - siqilishga mustahkamligi bo‘yicha B15 sinfidagi beton uchun.

3.5.3 Betonning suv o‘tkazmaslik bo‘yicha markasi quyidagicha bo‘lishi kerak:

W4 – siqilishga mustahkamligi bo‘yicha B15 sinfidagi beton uchun;

W6 – siqilishga mustahkamligi bo‘yicha B20, B22,5, B25, B30 sinfidagi beton uchun.

3.5.4 Betonning haqiqiy mustahkamligi (loyihaviy yoshda, uzatish, jo‘natish vaqtida) ishchi chizmalarida ko‘rsatilgan me’yoriy mustahkamlik va beton mustahkamligining haqiqiy bir xilligi ko‘rsatkichiga muvofiq ГОСТ 18105 bo‘yicha talab qilinadigan mustahkamlikka mos kelishi kerak.

3.5.5 Betonning siqilishga me’yorlangan uzatish mustahkamligi qiymati betonning loyihaviy mustahkamligiga nisbatan foiz hisobida quyidagilardan kam bo‘lmasligi kerak:

- yilning issiq davrida kamida 70%;

- yilning sovuq davrida kamida 90%

Yilning sovuq davri deb, tashqi havo haroratining o‘rtacha oy bo‘yicha qiymati 0 °C va undan past bo‘lgan davr hisoblanadi. Yilning issiq davri esa, amaldagi standartlarga muvofiq, doimiy mavjud davr qabul qilinadi.

3.5.6 Mahsulotlar foydalanuvchiga beton talab qilinadigan chiqarish mustahkamligiga erishgandan so‘ng yetkazib berilishi kerak.

Ishlab chiqaruvchi korxona 28 kunlik yoshida betonning loyiha mustahkamligiga erishishini kafolatlashi kerak.

3.6 Armatura, armatura buyumlari va o‘rnatiladigan qismlarga qo‘yiladigan talablar

3.6.1 Armatura, armatura buyumlari va o‘rnatiladigan qismlarning shakli va o‘lchamlari ishchi chizmalarda ko‘rsatilganlarga mos kelishi kerak. Armatura mahsulotlari va o‘rnatiladigan qismlarning o‘lcham aniqligi, yuzasi sifati hamda payvandlangan bo‘g‘inlarning mustahkamligi ГОСТ 10922 va ГОСТ 23279 talablariga javob berishi lozim.

3.6.2 Mahsulotlarni mustahkamlash uchun quyidagilar qo‘llanilishi kerak:

- ГОСТ 34028 va O‘z DSt 3025 talablariga muvofiq A240 sinfga mos Ст3пс yoki Ст3сп markali, A400 sinfga mos 35ГС markali silliq va davriy profilli issiq prokatlangan armatura po‘latlari;

STANDARTLARNI TASDIQLASH INSTITUTI #3UBEZXOXY 2025 TUZILGAN STANDARTNI SERTIFIKATLANG

- ГОСТ 6727 bo‘yicha past uglerodli po‘latdan yasalgan Bp-1 sinfidagi mustahkamlovchi sim.

3.6.3 O‘rnatiladigan qismlarni ishlab chiqarish uchun ГОСТ 380 yoki ГОСТ 535 bo‘yicha prokatdan foydalanish kerak.

3.6.4 O‘rnatish ilgaklari va anker boltlari ГОСТ 34028 va O‘z DSt 3025 talablariga muvofiq, A240 sinfiga mos Ст3пс yoki Ст3сп markali issiq prokatlangan silliq profilli mustahkamlovchi po‘latdan yasalishi kerak.

3.7 Armatura, armatura buyumlari, o‘rnatiladigan qismlar va o‘rnatish ilgaklarining joylashuviga qo‘yiladigan talablar

3.7.1 Mahsulotlardagi armatura, armatura buyumlari, o‘rnatiladigan qismlar va o‘rnatish ilgaklarining joylashuvi loyiha (dizayn) talablariga mos kelishi kerak.

3.7.2 Betonning himoya qatlamining ishchi armaturagacha bo‘lgan qalinligi ishchi chizmalarda ko‘rsatilgan qiymatlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Himoya qatlamining qalinligidagi haqiqiy og‘ishlarning maksimal qiymatlari ГОСТ 13015 da ko‘rsatilgan chegaralardan oshmasligi kerak.

3.7.3 Loyihaviy holatiga ko‘ra beton yuzasi tekisligiga to‘g‘ri keladigan o‘rnatiladigan qismlarning joylashuvidagi og‘ishlarning maksimal qiymatlari quyidagicha bo‘lishi kerak:

Buyum tekisligida o‘rnatiladigan qismining loyihaviy holatdan og‘ishi:

- 10 mm - ushbu tekislikda o‘lchami 100 mm dan katta bo‘lgan o‘rnatiladigan qismlar uchun;
- 5 mm - ushbu tekislikda o‘lchami 100 mm dan kichik bo‘lgan o‘rnatiladigan qismlar uchun;
- o‘rnatiladigan qismlarining buyum tekisligidan tasgqariga loyihaviy holatdan og‘ishi - 3 mm dan oshmasligi kerak.

3.8 Xom ashyo va materiallarga qo‘yiladigan talablar

3.8.1 Beton buyumlarni tayyorlash uchun ГОСТ 24297 ga muvofiq kirish nazoratidan o‘tgan materiallardan foydalaniladi.

3.8.2 Bog‘lovchi modda sifatida ГОСТ 31108 ga muvofiq ЦЕМ I 42,5Б portlandsement markalaridan foydalanish kerak.

Agar mahsulotlar foydalanish sohasi bo‘yicha [1] ga muvofiq sulfat agressiyasi mavjud bo‘lgan muhitda ishlatilsa, ГОСТ 22266 ga muvofiq ЦЕМ I СС, ЦЕМ II/А СС, ЦЕМ II/В СС yoki ЦЕМ III/А СС kabi sulfatga chidamli portlandsement markalaridan mos ravishda qo‘llanilishi zarur.

3.8.3 Yirik to‘ldirgich sifatida ГОСТ 8267 ga muvofiq 5–10 mm va 10–20 mm fraksiyali zich tog‘ jinslaridan tayyorlangan shag‘al yoki 5–20 mm fraksiyalar aralashmasi ishlatilishi kerak.

3.8.4 Mayda to‘ldiruvchi sifatida ГОСТ 8736 bo‘yicha qurilish qumi yoki ГОСТ 31424 bo‘yicha zich tog‘ jinslarini maydalashdan olingan elangan qum ishlatilishi lozim.

3.8.5 Beton mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan bog‘lovchi moddalar va to‘ldiruvchilar ГОСТ 26633 talablariga mos bo‘lishi kerak.

3.8.6 Beton aralashmasini tayyorlash uchun ГОСТ 23732 talablariga muvofiq beton va qurilish eritmalariga mo‘ljallangan suvdan foydalanilishi kerak.

3.8.7 Beton aralashmasini tayyorlashda qo‘llaniladigan kimyoviy qo‘shimchalar moddalar ГОСТ 24211 talablariga javob berishi kerak.

3.8.8 Beton ishlab chiqarishda boshqa turdagi xom ashyo materiallardan, shu jumladan sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha belgilangan talablarga javob beradigan materiallardan foydalanishga ruxsat beriladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

3.8.9 Beton tayyorlash uchun ishlatiladigan xom ashyo tarkibidagi tabiiy radionuklidlarining o‘ziga xos samarali faolligi (A_{sam}) qiymati ГОСТ 30108 va [2] talablariga muvofiq 370 Bq/kg dan oshmasligi lozim.

3.9 Tamg‘alash

3.9.1 Buyumlarni tamg‘alash ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.9.2 Saqlash va o‘rnatish jarayonida har bir mahsulot yuzasiga tamg‘alash yozuvlari va o‘rnatish belgilari qo‘yilishi lozim.

3.9.3 Belgilash yozuvlari quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- mahsulot belgisi;
- ishlab chiqaruvchining qisqa nomi va tovar belgisi (mavjud bo‘lsa);
- texnik nazorat shtampi.

Axborot belgilarida quyidagi malumotlar ko‘rsatilishi lozim:

-mahsulot ishlab chiqarilgan sana (yil, oy, kun);

- mahsulot massasining qiymati (massasi 0,8 t dan ortiq bo‘lgan mahsulotlar uchun).

O‘rnatish belgilari ГОСТ 13015 talablari hamda aniq va ma’lum bir mahsulot uchun ishchi hujjatlarga muvofiq bo‘lishi lozim.

3.9.4 Tamg‘alash yozuvlari va o‘rnatish belgilari mahsulotga o‘chmas bo‘yoq bilan trafaret yoki shtamp yordamida bo‘yash usuli bilan qo‘llanilishi kerak.

Issiqlik bilan ishlov berilgandan so‘ng hali sovimagan beton mahsulot yuzasiga esa tamg‘alash maxsus qalam yoki bo‘yoq yordamida qo‘lda amalga oshirilishi mumkin.

3.9.5 Tamg‘alash yozuvlari va o‘rnatish belgilari quyuq rangda bo‘lishi kerak.

3.9.6 Tamg‘alash uchun ishlatiladigan bo‘yoqlar suv o‘tkazmaydigan, tez quriydigan, yorug‘likka chidamli, mustahkam va yuvilishga chidamli bo‘lishi kerak.

3.9.7 Transportga oid tamg‘alash belgilari ГОСТ 14192 ga muvofiq qo‘llanilishi kerak.

3.10 Qadoqlash

Mahsulotlar qadoqlanishi shart emas.

4 Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari

4.1 Mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni xavfli emas, inson organizmiga zararli ta’sir ko‘rsatmaydi hamda ГОСТ 30244 ga muvofiq yonmaydigan materiallar guruhiga kiradi.

4.2 Mahsulot ishlab chiqarilishida ГОСТ 12.1.007 da belgilangan talablar bajarilishi zarur.

4.3 Ishchi hudud havosidagi zararli moddalar miqdori sanitariya me’yorlari [3] ga muvofiq ruxsat etilgan eng yuqori konsentratsiyadan oshmasligi lozim.

4.4 Ishlab chiqarish binolarining mikroiqlimi [4] da belgilangan talablar asosida ta’minlanishi lozim.

4.5 Ish joyidagi havoning sanitariya-gigiena ko’rsatkichlari ГОСТ 12.1.005 ga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.6 Mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xodimlar ГОСТ 12.4.103 va amaldagi me’yoriy standartlarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlanishi lozim.

4.7 Mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xodimlar ishga qabul qilinayotganda dastlabki tibbiy ko‘rikdan o‘tishi, shuningdek [5] ga muvofiq davriy tibbiy ko‘riklardan o‘tib turishi hamda, ГОСТ 12.0.004 ga va O‘z DSt 12.0.001 talablariga muvofiq instruktajdan o‘tishi va ish joyida o‘qitilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.8 Ish joylarida shovqin va tebranish darajasi [6] va [7] da belgilangan me’yoriy qiymatlardan oshmasligi kerak.

4.9 Yuklash va tushirish ishlarini bajarishda ГОСТ 12.3.009 va amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinishi lozim.

4.10 Ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnologik uskunalar ГОСТ 12.2.003 da belgilangan xavfsizlik talablariga javob berishi kerak.

4.11 Umumiy xavfsizlik talablari O‘z DSt 12.0.001 ga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.12 Ishlab chiqarish binolari ГОСТ 12.4.021 ga muvofiq kiritish-chiqarish ventilyatsiyasi bilan shuningdek [8] va [9] ga muvofiq suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

4.13 Mahsulotlarni ishlab chiqarishda ГОСТ Р 12.3.047 bo‘yicha yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish kerak.

4.14 Ishlab chiqarish jarayonlarida elektr xavfsizligi ГОСТ 12.1.019 va ГОСТ 12.1.030 talablariga muvofiq ta’minlanishi kerak.

4.15 Mahsulotlarni ishlab chiqarishda [10] va [11] da ko‘rsatilgan atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha amaldagi talablar bajarilishi lozim.

4.16 Oqova suvlarga qo‘yiladigan talablar ГОСТ 17.4.3.05 ga muvofiq belgilanadi.

4.17 Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar bo‘yicha ruxsat etilgan me’yorlarga rioya qilinishi ustidan nazorat ГОСТ 17.2.3.02 talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4.18 Ishlab chiqarishdan hosil bo‘lgan chiqindilarni utilizatsiya qilish [12] da ko‘rsatilgan talablarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

5 Qabul qilish qoidalari

5.1 Mahsulotlarni qabul qilish texnik nazorat xizmati yoki mahsulot sifati uchun mas’ul tayyorlovchi korxona vakili tomonidan, ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq to‘plarda amalga oshiriladi.

5.2 To‘plar tarkibiga quyidagi shartlarga mos mahsulotlar kiritiladi:

- bir hafta ichida ketma-ket ishlab chiqarilgan;
- bir xil texnologiya asosida tayyorlangan;
- bir xil turdagi materiallardan foydalanilgan;
- bir xil markadagi buyumlar.

5.3 Mahsulotlarni qabul qilish quyidagi hujjatlashtirilgan nazorat natijalari asosida amalga oshiriladi:

- xomashyo va materiallarni kirish nazorati;
- operatsion nazorat;
- qabul qilish-topshirish sinovlari;
- davriy sinovlar.

5.4 Xom ashyo va materiallarga kirish nazorati ГОСТ 24297 talablariga muvofiq o‘tkazilishi lozim.

5.5 Mahsulotlar ishlab chiqarilishida operatsion nazorat hajmi va tartibi tayyorlovchi korxonaning belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik hujjatlarida belgilanadi.

5.6 Har bir mahsulot to‘plari uchun qabul qilish va topshirish sinovlari quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- mahsulotlarning geometrik parametrlaridan og‘ish darajasi,
- to‘g‘rilikdan og‘ish,
- tekislikdan og‘ish,
- diagonallar uzunligining tengligidan og‘ish,

STANDARTLAR INSTITUTI.#3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

- perpendikulyarlikdan og‘ish,
- beton yuzalarning sifat toifasi,
- texnologik yoriqlarning ochilish eni,
- mahsulotlarning oldingi yuzalarida yog‘li yoki zangli dog‘larning mavjudligi,
- armatura ochilgan joylarning mavjudligi,
- metall qo‘shilgan qismlar, armatura chiqindilari va o‘rnatish ilgaklarining ochiq yuzalarida qotib qolgan beton qoldiqlari (beton to‘planmalari) mavjudligi,
- qo‘shilgan qismlar ustida korroziyaga qarshi qoplamaning mavjudligi,
- tamg‘alash yozuvlari va montaj belgilari to‘g‘ri qo‘llanilganligi,
- betonning o‘rtacha zichligi,
- betonning siqishga chidamliligi (beton sinfi yoki chiqarish kuchi),
- ishchi armaturagacha bo‘lgan himoya qatlamining qalinligi,
- armatura va qo‘shilgan qismlarning ishchi chizmalarga muvofiqligi,
- payvandlangan bo‘g‘inlarning mustahkamligi,
- qo‘shilgan qismlarning mahsulotdagi joylashuvi.

5.6.1 Buyumlar quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha ГОСТ 13015 asosida tanlangan bir bosqichli nazorat rejasi bilan qabul qilinadi:

- geometrik parametrlarning aniqligi;
- beton yuzalarining sifat toifasi;
- texnologik yoriqlarning ochilish kengligi;
- betonning ishchi armaturagacha bo‘lgan himoya qatlamining qalinligi.

5.6.2. Mahsulotlar quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha to‘liq nazorat usuli bilan qabul qilinadi:

- tashqi ko‘rinishi (yog‘li va zangli dog‘larning mavjudligi, armatura ochilgan joylari, o‘rnatiladigan qismlar va ilgaklarning ochiq yuzalarida beton to‘planmalari mavjudligi, korroziyaga qarshi qoplama holati);
- tamg‘alash yozuvlari va o‘rnatish belgilari to‘g‘ri qo‘yilganligi.

Mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha nuqsonlarga ega mahsulotlar rad etiladi.

5.6.3. Agar tanlab olingan namunada nuqsonli mahsulot aniqlanmasa yoki ularning soni ГОСТ 13015 bo‘yicha belgilangan maksimal yo‘l qo‘yiladigan miqdordan oshmasa, mahsulot to‘pi qabul qilinadi.

5.6.4. Qabul-topshirish sinovlari natijasida rad etilgan mahsulot to‘pi bo‘yicha to‘liq (ya’ni har bir buyumni qamrab oluvchi) nazorat o‘tkazishga ruxsat etiladi. Bu holatda nazorat faqat avvalgi sinovda qoniqarsiz natija bergan ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

5.6.5 Quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha qabul-topshirish sinovlari ishlab chiqarish jarayonida olib boriladi:

- armatura va o‘rnatiladigan qismlarning ishchi chizmalarga muvofiqligi;
- payvand birikmalarining mustahkamligi;
- buyumlardagi qo‘shimcha qismlarning holati.

5.7 Buyumlarning davriy sinovlari quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilishi kerak:

- betonning sovuqqa chidamliligi;
- betonning suv o‘tkazmasligi;
- tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi.

5.8 Davriy sinovlar quyidagi muddatlarda amalga oshirilishi kerak:

- betonning sovuqqa chidamliligi va suv o‘tkazmaslik ko‘rsatkichlari bo‘yicha - kamida har 6 oyda bir marta;

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

- tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) bo‘yicha - kamida yiliga bir marta;

- shuningdek, xomashyo materiallari o‘zgargan taqdirda - albatta sinovlar o‘tkazilishi zarur.

5.9 Beton buyumlarini tayyorlashda foydalaniladigan xomashyo materiallari uchun sanitariya-epidemiologik xulosa yoki muvofiqlik sertifikatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) ni aniqlamaslikka ruxsat etiladi.

5.10 Mahsulotlar ushbu standartning barcha talablariga muvofiqligini akkreditatsiya tizimida akkreditatsiyadan o‘tgan sinov laboratoriyalarida amalga oshirilishi lozim.

5.11. Yetkazib berilayotgan har bir mahsulot to‘piga quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan sifat hujjati ilova qilinishi shart:

- mahsulot ishlab chiqaruvchisi (yoki mavjud bo‘lsa - tovar belgisi), yuridik va aniq manzili, aloqa telefon raqami;
- mahsulotning nomi va markasi;
- to‘p raqami;
- ishlab chiqarilgan sana (yil, oy, kun);
- to‘pdagi buyumlar soni (dona);
- betonning loyihaviy mustahkamlik sinfi va loyihaviy yoshdagi talab etiladigan mustahkamlik qiymati;
- betonning haqiqiy (jo‘natish vaqtidagi) mustahkamligi;
- betonning sovuqqa chidamlilik markasi;
- betonning suv o‘tkazmaslik markasi;
- ushbu standartning belgilanishi (raqami);
- shtrix - kod (zarurat bo‘lganda);
- sertifikatlash bo‘yicha ma’lumotlar;
-mahsulot respublika hududida realizatsiya qilinayotgan bo‘lsa “O‘ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARILGAN”, agar eksportga jo‘natilayotgan bo‘lsa “MADE IN UZBEKISTAN” yozuvlari.

6 Nazorat usullari

6.1 Buyumlarning geometrik parametrlardan og‘ish, to‘g‘ri chiziqlikdan og‘ish, tekislikdan og‘ish, diagonallar uzunligining tengligidan og‘ish, perpendikulyarlikdan og‘ish, texnologik yoriqlarning ochilish kengligi, beton yuzalarning sifat toifasi ГОСТ 26433.0 va ГОСТ 26433.1 talablariga muvofiq aniqlanishi lozim.

6.2 Buyumlarning tashqi ko‘rinishi: yuzasidagi yog‘li va zangli dog‘larning mavjudligi, armatura ochilgan joylar, qo‘shimcha qismlar va o‘rnatish ilgaklarining ochiq yuzasida beton qoldiqlari mavjudligi, korroziyaga qarshi qoplama holati, tamg‘alash yozuvlari va o‘rnatish belgilarining to‘g‘ri qo‘yilganligi - butun to‘p bo‘yicha vizual ko‘zdan kechirish yo‘li bilan aniqlanadi.

6.3 Beton buyumlarining siqilish mustahkamligi (jo‘natish vaqtidagi va loyihaviy mustahkamlik) ГОСТ 10180 yoki O‘zMSt EN 12390-3 talablariga muvofiq aniqlanishi lozim.

Mazkur sinovlar ishlab chiqarishdagi ishchi tarkibdan tayyorlangan beton qorishmasidan olingan va ГОСТ 18105 yoki O‘zMSt EN 12390-2 talablariga muvofiq saqlangan namunalar to‘plami asosida amalga oshiriladi.

6.4 Buyumlar putur yetkazmaslik usullari bilan sinovdan o‘tkazilganda, betonning haqiqiy jo‘natishdagi siqilish mustahkamligi quyidagi me’yoriy hujjatlar asosida aniqlanishi lozim:

ГОСТ 17624 bo‘yicha ultratovush usuli;

ГОСТ 22690 bo‘yicha mexanik ta’sir ko‘rsatuvchi asboblar yordamida;

O‘z DSt ISO 1920-7 bo‘yicha betonni sinash usullari asosida.

6.5 Betonning o‘rtacha zichligi ГОСТ 12730.0 va ГОСТ 12730.1 bo‘yicha, ishchi tarkibdagi beton aralashmasidan tayyorlangan namunalar to‘plami asosida aniqlanish kerak.

6.6 Buyumlar betonining sovuqqa chidamliligi ГОСТ 10060 ga muvofiq aniqlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #3158F2A2A7 - 03.12.2025 MILLIY STANDARTGA SERTIFIKAT MOS

6.7 Betonning suv o‘tkazmazligi ГОСТ 12730.0 va ГОСТ 12730.5 talablari asosida aniqlanishi kerak.

6.8 Betonning ishchi armaturagacha bo‘lgan himoya qatlamining qalinligi, armatura, armatura buyumlari va o‘rnatilgan qismlarning o‘lchamlari va joylashuvi ГОСТ 22904 yoki ГОСТ 17625 bo‘yicha aniqlanishi kerak.

6.9 Payvand birikmalarning mustahkamli ГОСТ 10922 bo‘yicha aniqlanadi.

6.10. Foydalaniladigan xom ashyo materiallarining verifikatsiyasi (kirish nazorati) quyidagi normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- Portlandsement - ГОСТ 310.3 va ГОСТ 310.4 bo‘yicha;
- zich tog‘ jinslaridan olingan chaqiq tosh - ГОСТ 8269.0 bo‘yicha;
- qurilish ishlari uchun qum - ГОСТ 8735 bo‘yicha;
- zich tog‘ jinslarini maydalashdan hosil bo‘lgan qum - ГОСТ 8735 va ГОСТ 8269.0 bo‘yicha.

6.11 Armatura po‘latining sifati ГОСТ 12004 bo‘yicha aniqlanishi lozim.

6.12 Beton buyumlardagi tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) ГОСТ 30108 ga muvofiq aniqlanishi kerak.

6.13 Ushbu standartda nazarda tutilgan o‘lchov vositalariga metrologik jihatdan teng bo‘lgan boshqa vositalar, shuningdek belgilangan tartibda tasdiqlangan va sinov natijalarining ishonchliligini ta'minlaydigan boshqa nazorat usullaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

7 Transportda tashish va saqlash

7.1 Buyumlarni tashish va saqlash ГОСТ 13015 hamda ushbu standart talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

7.2 Buyumlar tanlangan transport turiga nisbatan amal qiladigan yuklarni tashish qoidalariga muvofiq har qanday transport vositasi yordamida tashilishi mumkin.

7.3 Buyumlar markasi bo‘yicha saralangan holda, zich tekislangan, qalinligi 30 mm dan kam bo‘lmagan yog‘och tagliklarga tayantirilgan holda ombor maydonchalarida saqlanishi kerak. Poydevorlar ishchi holatda bo‘lishi kerak.

Buyumlar (plitalar, ustunlar va h.k.) shtabel holida saqlanganda, qatlamlar orasiga yog‘och qistirmalar qo‘yilgan bo‘lishi shart. Buyumlar bir-birining ustiga joylashtiriladi. Shtabel balandligi 2 t dan oshmasligi kerak.

7.4 Buyumlarni ombor maydonchasiga shunday taxlash kerakki, tamg‘alash yozuvlari va o‘rnatish belgilari aniq ko‘rinib tursin, shuningdek alohida turgan buyumni yoki shtabelning ustki qatlamidagi buyumni kran yordamida erkin ko‘tarish va transport vositasiga yuklash imkoniyati ta’minlansin.

7.5 Yuklash va tushirish jarayonida buyumlarga mexanik shikast yetkazmaslik uchun zarur ehtiyot choralariga rioya qilinishi lozim.

Buyumlarni siljitish o‘rnatish ilgaklari yoki maxsus tutqichlar yordamida amalga oshirilishi kerak.

8. Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Buyumlarni o‘rnatish jarayonida [13] talablariga rioya qilish kerak.

9 Ishlab chiqaruvchining kafolatlari

9.1 Ishlab chiqaruvchi, iste’molchi tomonidan buyumlarni tashish, saqlash, o‘rnatish va foydalanish shartlariga rioya qilinganda, mahsulotlarning ushbu standart talablariga muvofiqligini kafolatlaydi.

9.2 Kafolatli saqlash muddati - ishlab chiqarilgan kundan boshlab 2 yil.

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

9.3 Mahsulotlardan foydalanish muddati - 25 yil.

A ilova
(ma’lumot uchun)
Mahsulotlarning asosiy xususiyatlari

Millimetrlarda

Mahsulot markasi	Asosiy o‘lchamlar			Betonning	Betonning
	L- (uzunlik)	B- (kenglik)	H- (balandlik)		
3.407-115 seriya, 2 – to‘plam					
F2-A (Ф2-A)	1800	1800	3200	B 30	F_1 150
F2-2 (Ф2-2)	1500	1500	2700	B 30	F_1 150
F3-A (Ф3-A)	2100	2100	3400	B 30	F_1 150
F3-AM (Ф3-AM)	2100	2100	3115	B 30	F_1 150
F3-2 (Ф3-2)	1800	1800	2700	B 30	F_1 150
F4-2 (Ф4-2)	2100	2100	2700	B 30	F_1 150
F4-AM (Ф4-AM)	2400	2400	3115	B 30	F_1 150
F4-0 (Ф4-0)	2100	2100	2700	B 22,5	F_1 150
F5-AM (Ф5-A)	2700	2700	3115	B 30	F_1 150
F5-2 (Ф5-2)	2400	2400	3200	B 30	F_1 150
F5-4 (Ф5-4)	2400	2400	3200	B 30	F_1 150
F5-A (Ф5-A)	2700	2700	3400	B 30	F_1 150
F6-4 (Ф6-4)	2700	2700	3200	B 30	F_1 150
3.407-115 seriya, 3 – to‘plam					
F3-05 (Ф3-05)	1800	1800	2700	B 22,5	F_1 100
FK3-05 (ФК3-05)	1800	1800	1700	B 22,5	F_1 100
F4-05 (Ф4-05)	2000	2000	2700	B 22,5	F_1 100
FK4-05 (ФК4-05)	2000	2000	1700	B 22,5	F_1 100
3.407-115 seriya, 5 – to‘plam					
TP1-A (ПП1-A)	3600	1800	200	B 22,5	F_1 100
PA2-1 (ПА2-1)	2000	1500	600	B 22,5	F_1 100
PA2-2 (ПА2-2)	3000	1500	600	B 22,5	F_1 100
PA3-1 (ПА3-1)	3000	2000	600	B 22,5	F_1 100
PA3-2 (ПА3-2)	4000	2000	600	B 22,5	F_1 100
R1-A (P1-A)	3000	400	200	B 22,5	F_1 100
AR5 (AP5)	3000	400			
AR6 (AP6)	3500	500			
3.407-102 seriya, 1 – to‘plam					
KP2-1 (ПН2-1)	3250	890	100	B 22,5	F_1 100
KP2 (ПН2)	3250	890	100	B 15	F_1 50
KP-1 (НСП-1)	3500	1000	250	B 22,5	F_1 100
KP-3 (НСП-3)	3500	1500	250	B 22,5	F_1 100
UB-1 (УБ-1)	800	800	400	B 15	F_1 50
UBK-5 (УБК-5)	995	495	60	B 15	F_1 50
UP-1 (УП-1)	900	900	120	B 15	F_1 50
OTP-5 (ОПП-5)	1250	495	80	B 15	F_1 50
UUU 1-A (УСО-1-A)	5200	250	250	B 15	F_1 50
UUU 2-A (УСО-2-A)	4400	250	250	B 15	F_1 50
UUU 3-A (УСО 3-A)	3600	250	250	B 15	F_1 50
UUU 4-A (УСО 4-A)	3000	250	250	B 15	F_1 50

STANDARTLAR INSTITUTI #3118P2X2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

UUU 5-A (УСО 5-A)	2200	250	250	B 15	F_1 50
UUU 5-A-1 (УСО 5-A-l)	2200	250	250	B 15	F_1 50
ТП 407-03-415:86					
KP-12a (НСП-12a)	3500	100	250	B 25	F_1 100
3.407-57 seriya, 1 – to‘plam					
PT (ПТ) 1,7-3,25	3250	180	220	B 22,5	F_1 100
PT (ПТ) 2,2-4,25	4250	180	220	B 22,5	F_1 100
PT (ПТ) 4.0-6,0	6000	200	265	B22,5	F_1 100
3.407-57/87 - seriya					
PT (ПТ) 33-2	3250	180	220	B 25	F_1 100
PT (ПТ) 33-3	3250	180	220	B 25	F_1 100
PT (ПТ) 33-4	3250	180	220	B 25	F_1 100
PT (ПТ) 43-1	4250	180	220	B 25	F_1 100
PT (ПТ) 43-2	4250	180	220	B 25	F_1 100
1080 raqamli chizma					
3F 62 (3Ф 62)	670	670	3250	B 20	F_1 100
3F 63 (3Ф 63)	670	670	3300	B 20	F_1 100
4F 63 (4Ф 63)	670	670	4250	B 20	F_1 100
4F 64 (4Ф 64)	670	670	4300	B 20	F_1 100
5F 64 (5Ф 64)	670	670	5300	B 20	F_1 100
5F 65 (5Ф 65)	670	670	5350	B 20	F_1 100
3F 92 (3Ф 92)	1000	1000	3250	B 20	F_1 100
3F 93 (3Ф 93)	1000	1000	3300	B 20	F_1 100
4F 93 (4Ф 93)	1000	1000	4300	B 20	F_1 100
4F 94 (4Ф 94)	1000	1000	4350	B 20	F_1 100
5F 94 (5Ф 94)	1000	1000	5350	B 20	F_1 100
4F 95 (4Ф 95)	1000	1000	4400	B 20	
5F 95 (5Ф 95)	1000	1000	5400	B 20	F_1 100
5F 96 (5Ф 96)	1000	1000	5540	B 20	F_1 100
5F 97 (5Ф 97)	1000	1000	5604	B 20	F_1 100
3.407.1-157 - seriya					
L20.5 (Л20.5)	2000	150	160	B15	F_1 50
LK20.5 (ЛК20.5)	2000	500	160	B15	F_1 50
LK20.10 (ЛК20.10)	2000	1000	160	B15	F_1 50
B5 (Б5)	500	150	100	B 15	F_1 50
B10 (Б10)	1000	150	100	B 15	F_1 50
BPL5.2 (БПЛ5.2)	500	150	100	B 15	F_1 50
BPL10.2 (БПЛ10.2)	1000	150	100	B 15	F_1 50
KP 35.10 (НСП 35.10)	3500	1000	250	B 25	F_1 100
KP 35.15 (НСП 35.15)	3500	1000	250	B 25	F_1 100
PT 10.5 (ПТ10.5)	995	495	60	B 15	F_1 50
P15.5 (П15.5)	995	495	70	B 15	F_1 50
KP 32.9 (ПН 32.9)	3250	890	100	B 15	F_1 50
KP 32.9-1 (ПН 32.9-1)	3250	890	100	B 15	F_1 50
KP 32.9-2 (ПН 32.9-2)	3250	890	100	B 15	F_1 50
SHT-27 (ШТ-27)	2700	300 •	250	B 15	F_1 50
SHT-12 (ШТ-12)	1200	300	250	B 15	F_1 50

STANDARTLAR INSTITUTI 23I8PZX2XY - 02.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

LY-1,6 (ЛЖ-1,6)	1600	400	500	B 15	F_1 50
LY-2,8 (ЛЖ-2,8)	2800	400	500	B 15	F_1 50
LY-4,4 (ЛЖ-4,4)	4400	400	500	B 15	F_1 50
LY-6,0 (ЛЖ-6,0)	6000	400	500	B 15	F_1 50
LY-8,4 (ЛЖ-8,4)	8400	400	500	B 15	F_1 50
LY-10.4 (ЛЖ-10,4)	10400	400	500	B 15	F_1 50
70 тм-25 raqamli chizma					
F5-UUU $_{(250)}$ (Ф5-УСУ $_{(250)}$)	2200	2200	3500	B 30	F_1 150
F5-UUU $_{(350)}$ (Ф5-УСУ $_{(350)}$)	2200	2200	3500	B 30	F_1 150
F3-AM$_K$ (Ф3-АМк)	2100	2100	2885	B 30	F_1 150
F4-AM$_K$ (Ф4-АМк)	2400	2400	2885	B 30	F_1 150
F5-AM$_K$ (Ф5-АМк)	2700	2700	2885	B 30	F_1 150
PK-1A (ПК-1А)	5000	1150	250	B 22,5	F_1 100
1063-25-365 raqamli chizma					
F4-UUA (Ф4-ОУА)	2000	2000	2700	B 22,5	F_1 100
240380 - chizma					
F4-UMU (Ф4-ОМУ)	2100	2100	1700	B 15	F_1 50
1623 тм-т5 raqamli chizma					
F4-U (Ф4-У)	2000	2000	3200	B 22,5	F_1 100
F5-U (Ф5-У)	2200	2200	3200	B 22,5	F_1 100

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografiya

[1]	SHNQ 2.03.11-24	Bino va inshootlarning qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish.
[2]	SanQvaN 0193-06	Radiatsion xavfsizlik normalari (RXN 2006) va radiatsiya xavfsizligini ta’minlashning asosiy sanitariya qoidalari (RXTASQ 2006).
[3]	SanQvan 0294-11	Gigiyenik me’yorlar. Ish zonasi havosidagi zararli moddalarning REM.
[4]	SanQvaN 0324-16	Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimining sanitariya-gigiyena me’yorlari.
[5]	200-sonli SSV buyrug‘i	Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi 2012-yil 10-iyuldagi nizomni tasdiqlash haqida.
[6]	SanQvaN 0325-16	Ish joylarida shovqinning yo‘l qo‘yilgan darajasining sanitariya me’yorlari.
[7]	SanQvan 0326-16	Ish joylarida umumiy va mahalliy tebranishning sanitariya me’yorlari.
[8]	SHNQ 2.04.05-22	Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash.
[9]	SHNQ 2.04.01-22	Binolar ichki suv ta’minoti va oqava suvlarni chiqarib yuborish.
[10]	SanQvaN 0212-06	O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarida yerdan foydalanishning har xil turlarida tuproqning ifloslanish darajasini gigiyenik baholashning sanitariya qoidalari va me’yorlari
[11]	SanQvaN 0053-23	Aholi yashash punktlarining atmosfera havosidagi zararli va zaharli moddalar, produtsent mikroorganizmlar, bakterial preparatlar va aeroionlarning ruxsat etilgan gigiyenik me’yorlari.
[12]	SanQvaN 0300-11	O‘zbekistonda sanoat chiqindilarini yig‘ish, inventarizatsiya qilish, tasniflash, zararsizlantirish, saqlash va utilizatsiya qilishni tashkil etish bo‘yicha sanitariya qoidalari va me’yorlari.
[13]	QMQ 3.01.02-23	Qurilishda havfsizlik texnikasi.

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografik ma’lumotlar

SMT 91.100.30

Muhim so‘zlar: Unifitsirlangan metall tayanchlar osti fundamentlari uchun mo‘ljallangan temirbeton buyumlar - texnik talablar, tamg‘alash, atrof muhit va xavfsizlik talablari, qabul qilish qoidalari, nazorat usullari, transportda tashish va saqlash, foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar.

STANDARTLAR INSTITUTI #3I18PZX2XY - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ